



CHET TILDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA OID TOPSHIRIQLAR

N.Merganova

pf.f.d. (PhD), FarDU nemis tili o'qituvchisi
parizod_de@mail.ru

M.Jaloldinova


FarDU nemis tili yo'nalishi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7731327>

Annotasiya: Ushbu maqolada chet tilda og'zaki nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar, dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlikda ishlashi kabilar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'z va iboralar: tilda erkin suhbatlashish, tilni puxta egallash, rag'batlantirish, nutqini shakllantirish, ijodkorlikka yo'naltirish, bahs-munozara metodi.

“Ta’lim jarayonining samaradorligi ko’p jihatdan ishtirokchilarning faolligi, aniq maqsad sari intilishlari va intizomli bo’lishlariga bog’liq”¹. O’quv mashgulotlarini o’tkazishga tayyorgarlik ko’rish hamda uni tashkil etish uchun sarflanadigan kuch va vaqt xajm jihatdan an’anaviy ta’limni tashkil etish uchun sarflangan kuch va vaqtga nisbatan ancha ko’p bo’ladi. Chet tilni o’rganishdan asosiy maqsad o’quvchilarning chet til sohasidagi bilimlarini kundalik muloqot jarayonida qo’llay olish va o’z fikrini bayon qila olish vositasi sifatida o’rganish, chet el axborot vositalarini tushuna olish darajasida egallash hisoblanadi. Hozirgi kunning o’quvchisi chet tilini o’rganar ekan, avvalo shu tilda erkin suhbatlashishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Bunda o’qituvchining vazifasi o’quvchilarda chet tilni o’rganish jarayonida tilni puxta egallashlari va ularning ijodiy tafakkur faoliyatini faollashtirishdan iborat. Buyuk nemis tilshunosi Xelmkening fikriga ko’ra gapirish avvalombor o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Demak, xorijiy tilni o’rgatishda asosiy mas’uliyat o’qituvchi zimmasiga tushadi. O’qituvchi darsda imkon qadar xorijiy tilda gapirishi lozim. Biroq, o’quvchi ona tilida savol berganda uni tushunganini izhor qilishi kerak. Ya’ni o’quvchining erkin murojaati, ishtirokiga izn berish zarur. O’quvchining xato qilayotganidan tashvishga tushish noo’rin. Shuningdek, o’qituvchi o’rgatish vositalarini tanlayotganda o’quvchi hayotiga va qiziqishlariga yaqin bo’lgan ob’ektlarga e’tibor qaratishi lozim. Buning uchun esa, o’qituvchi, albatta, o’quvchi haqida, uning bilim darajasi, o’rganish ehtiyoji va imkoniyatlari haqida mukammal ma’lumotga ega bo’lishi zarur.

¹ S.Saydaliev. Tillar o’qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari. Namangan 2019, 136 b.





Topshiriqlarni belgilashda o'quvchining o'zi ishtirok etsa, bu uni darsga yanada yaqinlashtirib, o'qishga rag'batlantiradi. Til o'rganayotgan o'quvchi so'zlar va qoidalar, ular orasidagi bog'liqlikni misollar yordamida tushunishi kerak. Shunda u mustaqil tarzda yangi misollar tuzadi. Lekin bu o'quv jarayonining asosiy qismi bo'lmasligi, darsni murakkablashtirmasligi zarur. Samarali natijaga erishish uchun bir hillikdan chekinish lozim bo'ladi. O'quvchi yangilikka o'ch bo'ladi. Darsliklarni almashtirish, turli o'quv vositalaridan va usullaridan, har xil o'yinlardan foydalanish bolani zerikishdan, darsdan sovishdan himoya qiladi. Suhbatsiz xorijiy tilda nutqni o'stirishning imkoni yo'q. Eng sodda va qisqa muloqotlar, qiziqarli sahna ko'rinishlari, o'quvchilar yoshiga mos o'yinlarni qo'llash kutilganidan ortiq samara beradi.

Biroq shuni unutmash kerakki, chet tilda gapirish avvaliga o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'quvchilarni ko'proq taqlid qilishga undashlari, gap yoki jummalarni ko'p marotaba qaytartirishlari lozim. Gapirishga o'rgatishni imkoni boricha ertaroq boshlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar o'zlari bilgan so'z va iboralar yordamida xabar berishni o'rganishlari lozim. "O'quvchilarni mustaqil bo'lishga majburlab bo'lmaydi. Lekin shuni unutmash kerakki: Kishi mustaqil bo'lmasa, mustaqil fikr ham yurita olmaydi"².

Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilida og'zaki nutqni o'stirishda faqat so'zlarni o'rganish yetarli emas, talaba bu so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llay bilishi kerak. Shuning uchun kundalik voqealarga asoslangan qisqa matn yoki dialoglardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. So'zlar va iboralar ham shu matn yoki dialogdan olingan bo'lishi lozim. Quyida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi ba'zi topshiriqlarni ko'rib chiqsak:

1. Rolli o'yinlar kartasi. Istagan rolingizni tanlang va yoningizdagi sherigingiz bilan ijro eting.

A. Siz mehmonxonaga xona buyurtirish uchun qo'ng'iroq qildingiz. Sizga bir xonali yotoq zarur va uni band qilishingiz kerak.

B. Siz mehmonxonada ishlaysiz, sizga bir xonali yotoq band qilishni so'rab telefon qilishdi. Biroq, barcha bir xonali yotoqlar band qilingan, faqat kelin kuyovlar uchun maxsus ajratilgan xona mavjud bo'lib, bir kunga 200 Yevro turadi.

² Andreas Helmke. Unterrichtsqualität. Erfassen, Bewerten, – Seelze.: Kallmeyer. 2008.





Bunday rolli o'yinlar kundalik mavzuni o'z ichiga olgan bo'lib, bu holat chet tilini o'rganayotgan talabaga tanishdir. Bunday mavzudagi rolli o'yinlar orqali talabalar nafaqat og'zaki nutqini oshiradi, balki madaniyatlararo muloqotni ham o'rganadi.

2. Bahs-munozara metodi. Bunda guruh ikkiga ajratilib 1-guruh berilgan mavzuning ijobiy tomonini, 2-guruh esa mavzuning salbiy oqibatlarini yoritib berishlari kerak. Masalan: "Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish" mavzusi aynan talabalar yoshiga mos mavzu bo'lib, ular bu mavzuda ona tilida soatlab baxslashishlari mumkin, lekin chet tilida baxslashish oson emas, shuning uchun bu o'rinda o'qituvchi ularga yordam bermog'i, so'z va iboralarni ularga oldindan tushuntirishi zarur bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida nemis olimi Frank Sven alohida to'xtalgan. Uning fikricha, "O'qituvchi o'quvchi bilan suhbat jarayonida uning gapirishda qanday qiyinchiliklarga uchrayotganligini, qaysi nutq iboralarini unga o'rgatish kerakligini va og'zaki nutqning qaysi jihatlari unda yaxshi shakllanganligini anglab oladi"³. A.Mayer esa "O'qituvchi dars jarayonida o'quvchining eng yaxshi suhbatdoshi sanaladi. Chunki o'qituvchi o'quvchi nimani tushunmagan bo'lsa, shuni tushuntiradi, o'quvchi gapirishda no'noqlansa, darrov yordam beradi, so'zlarni tarjima qiladi, o'quvchining nutqini shakllantirishga turtki beradi"⁴ deya ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchini ijodkorlikka yo'naltirish, uning og'zaki nutqini shakllantirishda o'qituvchining roli katta. Agar o'qituvchi o'quvchi bilan hamkorlikda ishlasa, unga bo'lgan ishonchini darsda ko'rsatsa, uni qo'llab-quvvatlasa o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, mustaqil o'z fikrini aytishga jur'at topa oladi. Agar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida nafaqat ishonch, balki o'zaro hurmat bo'lsa, har bir o'quvchining o'ziga hos qobiliyatlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri baholansa, o'quvchi xorijiy tilni o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, noto'g'ri jumla tuzishdan qo'rqmaydi, murakkab vazifalarga yechim topa olmagan taqdirda ham bu katta xato emasligini tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Saydaliev. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari. Namangan 2019, 136 b.
2. Andreas Helmke. Unterrichtsqualität. – Seelze.: Kallmeyer. 2008.
3. Frank Sven. Chet tilini qisqi muddatda o'rganishga erishish. Bonn. 2000.

³ Frank Sven. Chet tilini qisqi muddatda o'rganishga erishish. Bonn. 2000.

⁴ Angelika Mayer. Horijiy tillarni samarali o'qitish va o'rganish. Berlin. 2015, 138 b.





4. A. Mayer. Horijiy tillarni samarali o'qitish va o'rganish. Berlin. 2015, 138 b.
5. PZ Sabirjanovna. (2023). ISSUES OF CULTURE SHOCK IN ADAPTATION TO ANOTHER CULTURE. Journal of Modern Educational Achievements 3 (3), 240-244.
6. MN Mamadodilovna. (2022) USING NON-TRADITIONAL METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. IJODKOR O'QITUVCHI. 2 (23), 68-71.
7. Mamadodilovna, M. N. (2020). Psychological basis of development of speech in a foreign language. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 268-270.
8. Ahrorova, R. U. (2021). SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS REPRESENTING "YOUTH" IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. Theoretical & Applied Science, (7), 122-126.
9. Kaharova, M. (2021). MICRO FIELD OF LEXEMES WHICH DENOTE UZBEK PEOPLES'HOLIDAYS AND WORK CEREMONIES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 646-648.
10. Askarova Sh.I. Nemis tilini o'rgatishda noodatiy pedagogic texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2022.
11. Dehqonov.I.T. (2022) Scientific-Theoretical Bases and Principles of Speech Etiquette Units in World Linguistics. ("Etiquette De La Parole"). International Journal of Culture and Modernity, Volume 14, 39-42.
12. Mukhtorovna, Y. S. (2021). Regularly used phrasal verbs German language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 673-680.
13. Abdullaev, Z. (2021). Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik (Doctoral dissertation).
14. Kakharov, K. (2022). Characteristics of Father's Speech in Uzbek and German Families. International Journal of Culture and Modernity, 14, 43-47.
15. Ubaydullayev, K., & Muminov, S. (2022). PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A NAME OF ANIMALS AND PLANTS FOCUS ON THE SCIENTIFIC RESEARCH. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8 (1), 118-126. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 166-167.
16. Jurayeva Sh.X. On the Expression of Words from French Language to Uzbek Language. American journal of social and humanitarian reasearch.
17. Yigitaliyeva, Z. M. (2019). Methods of modus expression in Uzbek publicistic texts. International Journal of Student Research, (3), 84-87.





18. AG Raxmonaliyevna. System of Vocation and higher Education in Germany.
19. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal 7 (12), 316-318.
20. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms in prose works// International interdisciplinary research journal (giirj) Volume 10, Issue 2, February, 2022 ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490 (N 23).
21. Makhmudovna, A. Sh. (2022/3/4).CREATIVE WRITING IN GRAMMAR LESSONS. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 258-260.
22. S Tulanov. INCONTROLABLE AND TEMPORALITY IN RUSSIAN AND FRENCH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (11), 996-1001, 2022.

